


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2019-yil yanvar-may*)

Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-may oyida chakana savdo tovar aylanmasi 62 619,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,9 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 9 430,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 34,7 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 53 189,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 6019,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8.8 % ga kamaygan) tashkil etdi.


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xorazm, Buxoro, Sirdaryo, Samarqand viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etildi.

*-dastlabki ma'lumotlar

Chakana savdo tovar aylanmasining o'rish sur'atlari, %




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 34,7 % ga o'sdi va 9 430.1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 15,1 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 53 189,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 2,0 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,9 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, %

2018-yil
yanvar-may




2019-yil
yanvar-may



■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, %**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qashqadaryo (97,1 %), Jizzax (91,5%) Surondaryo (91,1 %), Toshkent (90,3 %) va Namangan (88,8 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 15,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (27,0 %), Xorazm viloyatida (24,3 %), va Buxoro viloyatida (15,9 %) kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**


	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O`zbekiston Respublikasi	9 430,1	134,7	53 189,2	102,0
Qoraqalpog`iston Respublikasi	263,7	159,4	1932,4	103,7
<i>viloyatlar:</i>				

Andijon	577,5	140,3	4 281,2	101,8
Buxoro	602,6	175,1	3 187,1	101,5
Jizzax	190,4	163,8	2 061,4	102,4
Qashqadaryo	121,4	43,2	3 995,9	104,6
Navoiy	300,5	180,3	2 166,1	101,5
Namangan	424,2	156,0	3 373,2	102,0
Samarqand	723,7	170,3	4 688,9	102,3
Surxondaryo	356,0	126,6	3 630,9	103,5
Sirdaryo	139,7	212,0	1 062,5	102,2
Toshkent	650,0	107,8	6 061,7	102,8
Farg'ona	586,5	123,1	4 357,7	102,3
Xorazm	618,6	149,6	1 926,2	101,8
Toshkent sh.	3 875,4	131,0	10 463,8	100,7


Hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining respublika
chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %



Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, %



Chakana savdo tovar aylanmasida
mulchlik shakllarining ulushi, %



Mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	<i>shu jumladan:</i>	
		nodavlat mulki (mlrd. so`m)	davlat mulki (mlrd. so`m)
O`zbekiston Respublikasi	62 619,3	62 524,2	95,1
Qoraqalpog`iston Respublikasi	2 196,1	2 195,3	0,8
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	4 858,7	4 857,6	1,1
Buxoro	3 789,7	3 788,3	1,4
Jizzax	2 251,9	2 250,4	1,5
Qashqadaryo	4 117,3	4 116,3	1,0
Navoiy	2 466,6	2 462,9	3,7
Namangan	3 797,4	3 795,9	1,5
Samarqand	5 412,6	5 411,6	1,0
Surxondaryo	3 987,0	3 986,1	0,9
Sirdaryo	1 202,2	1 202,2	-
Toshkent	6 711,8	6 709,8	2,0
Farg`ona	4 944,2	4 944,2	-
Xorazm	2 544,8	2 544,4	0,4
Toshkent sh.	14 339,0	14 259,0	80,0

2019-yil yanvar-may oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan respublikamizning barcha hududlarida (Qashqadaryo (98,3 %) viloyatidan tashqari) o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni boshqa hududlar bilan solishtirganda eng yuqorisi Toshkent shahri (5 698,3 ming so`m), Navoiy (2 514,1 ming so`m) va Toshkent (2 312,2 ming so`m) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.

2019 yil yanvar-may holatiga o`rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 879,6 ming so`m (o`tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 4.0 % ga o`sgan). Ushbu ko`rsatkich respublika hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:


Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O`zbekiston Respublikasi	1 879,6	104,0
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1 172,8	106,7
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	1 581,6	103,3
Buxoro	1 997,3	107,0
Jizzax	1 661,5	103,6
Qashqadaryo	1 278,9	98,3
Navoiy	2 514,1	105,4
Namangan	1 376,9	104,1
Samarqand	1 422,0	105,8
Surxondaryo	1 548,2	103,0
Sirdaryo	1 446,0	106,9
Toshkent	2 312,2	101,9
Farg`ona	1 340,1	102,6
Xorazm	1 384,3	108,6
Toshkent sh.	5 698,3	105,5

Shuningdek, 2019-yilning yanvar-may oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2.9 % ni tashkil etib, 1805.7 mlrd. so`mga yetdi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 9.6 % o`sisdi. Bunda


jami savdo aylanmasining 83.8 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)




Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi, %

2018-yil yanvar-may




2019-yil yanvar-may



Davlat mulki
 Nodavlat mulki

Hududlar kesimida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, %



Mulkchilik shakllari bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami (mln. so`m)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mln. so`m)	davlat mulki (mln. so`m)
O'zbekiston Respublikasi	1 805 715,9	1 725 220,5	80 495,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	66 447,0	66 325,5	121,5
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	55 533,5	55 533,5	-
Buxoro	140 254,6	140 227,1	27,5
Jizzax	46 772,7	46 627,7	145,0
Qashqadaryo	82 041,5	81 907,5	134,0
Navoiy	61 518,2	59 447,8	2 070,4
Namangan	58 220,5	57 760,7	459,8

Samarqand	131 139,4	130 695,0	444,4
Surxondaryo	81 497,2	81 232,6	264,6
Sirdaryo	21 401,6	21 401,6	-
Toshkent	188 730,3	188 141,3	589,0
Farg'ona	72 738,8	72 738,8	-
Xorazm	37 584,4	37 300,3	284,1
Toshkent sh.	761 836,2	685 881,1	75 955,1


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-may*)

Yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 30 685,4 mlrd. so'mni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga o'sgan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-fevral oyi yakunlariga ko'ra, 22 033,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 % ga o'sgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 71,8 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa viloyatlar bilan taqqoslanganda, Toshkent shahrida (83,7 %), Farg'ona (79,1 %) va Buxoro (62,7 %) viloyatlarida yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %




*dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 28,2 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Toshkent (54,3 %) va Navoiy (53,0 %) viloyatlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %
O`zbekiston Respublikasi	30 685,4	107,1	8 652,1	115,1	22 033,3	104,2
Qoraqalpog`iston Respublikasi	685,2	118,7	285,6	157,7	399,7	100,8
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1 061,3	104,5	338,9	109,0	722,4	102,5
Buxoro	935,9	103,1	348,8	105,3	587,0	101,8
Jizzax	809,2	119,3	339,6	160,3	469,6	100,7
Qashqadaryo	1 097,7	101,4	454,1	101,0	643,6	101,7
Navoiy	863,9	93,2	457,9	84,8	406,0	104,9
Namangan	887,8	114,1	443,3	130,7	444,4	101,3
Samarqand	2 288,1	111,5	721,5	138,0	1 566,7	102,4
Surxondaryo	970,8	110,4	318,5	118,6	652,3	106,8
Sirdaryo	605,4	104,3	233,3	105,6	372,1	103,6
Toshkent	2 836,8	99,4	1 540,8	96,5	1 296,0	103,2
Farg`ona	2 071,1	112,6	433,7	133,2	1 637,4	108,1
Xorazm	780,5	119,4	319,5	146,1	461,0	106,0
Toshkent sh.	14 791,8	107,6	2 416,7	120,9	12 375,1	105,3

Mulkchilik shakli bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi, %



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi
bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, %




**Mulkchilik shakllari bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd. so`m)	<i>shu jumladan:</i>	
		nodavlat mulki (mlrd. so`m)	davlat mulki (mlrd. so`m)
O`zbekiston Respublikasi	30 685,4	30 651,6	33,8
Qoraqalpog`iston Respublikasi	685,2	685,2	-
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1 061,3	1 061,2	0,1
Buxoro	935,9	935,9	-
Jizzax	809,2	809,2	-
Qashqadaryo	1 097,7	1 097,7	-
Navoiy	863,9	863,4	0,5
Namangan	887,8	887,8	-
Samarqand	2 288,1	2 288,1	-
Surxondaryo	970,8	970,7	0,1
Sirdaryo	605,4	605,4	-
Toshkent	2 836,8	2 836,1	0,7
Farg`ona	2 071,1	2 071,1	-
Xorazm	780,5	780,5	-
Toshkent sh.	14 791,8	14 759,4	32,4

Joriy yilning yanvar-may oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi 30 685,4 mlrd. so`mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi 30 651,6 mlrd. so`mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan 33,8 mlrd.so`mni tashkil etdi. Ko`rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo`lsak, respublika ulgurji savdo aylanmasida yuqori ulush Toshkent sh. 48,2 %, Toshkent 9,2 %, Samarqand 7,5 %, Farg`ona 6,8 % viloyatlarida qayd etildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, %**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Navoiy (93.2 %) Toshkent (99,4 %), Qashqadaryo (101,4 %), Buxoro (103,1 %) viloyatlarida qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi
Tel.:71-230-80-42 (43)**